

**INTERNETDA SOHOGA OID WEB SAYTLAR VA ULARDAN  
AXBOROT KO'CHIRISH**

*Zokirov Hikmatillo Hayotbek o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Zootexnologiya ta'lim  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Web-sayt tushunchasi va shakli, Web saytlarning toifalari va vazifalari, internetga resurslarni joylashtirish va ko'chirib olish, Web-saytni ochish uchun brouzer dasturidan foydalanib uning manzil maydoniga kerakli Web saytning manzilini qanday kiritish kerakligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada Web saytlarning asosiy vazifasi, ular biror faoliyat, voqea va xodisa yoki biror shaxsning Internetdagi imidjini yaratishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Web-sayt tushunchasi, Web-sayt shakli, Web saytlarning toifalari, internetga resurslarni joylashtirish va ko'chirib olish, Web-saytni ochish.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng rivojlangan. Deyarli barcha yirik va o'rta kompaniyalar endi o'z veb-saytlariga ega. Hatto boshlang'ich kompaniyalar ham o'z veb-saytiga ega. Uning mavjudligi kompaniyaning farovonligi, mustahkamligi va zamonaviyligidan dalolat beradi. Internetda professional veb-saytning mavjudligi kompaniyaning qiyofasi - zamonaviy, ochiq, rivojlanayotgan. Internet - mahsulot yoki xizmatningizni targ'ib qilish va reklama qilish imkoniyatlaridan biri. Veb-sayt nafaqat potentsial mijozlarni jalb qilish vositasi, balki mijozlar uchun kompaniya bilan ishlashning ajoyib vositasidir. Reklama, albatta, yangi mijozlarni jalb qilish va tovarlar va xizmatlarni ilgari surish vositasidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Turli maqsadlarga erishishning eng samarali usuli bu dasturdan foydalanishdir.

Umuman olganda, ushbu mahsulot tegishli tashkilot yoki mutaxassislarni jalb

qilmasdan, mustaqil ravishda turli bosma mahsulotlarni tayyorlash vazifasi turgan korxonalar xodimlariga ma'qul kelishi shubhasiz. Biroq, u uyda ishlash uchun ham juda mos keladi, ayniqsa, dastur interfeyslari foydalanuvchilarning ushbu segmentiga juda yaxshi ma'lum. Ushbu dasturning afzalligi shundaki, siz dasturlash va dizayn mahoratisiz istalgan sahifa-nashrni yaratishingiz mumkin. Faqat matn kiritish va rasmlarni kiritish qoladi. Har bir korxonalar yoki ta'lim muassasasi Web Project dasturidan foydalangan holda dizayner xizmatlaridan tejjash va mustaqil ravishda veb-sayt yaratish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham ushbu kurs ishining mavzusi muhim va dolzarbdir.

Tadqiqot ob'ekti AGRO-DON MChJ korxonasi. Tadqiqot mavzusi - korxonalar veb-saytini yaratish, tartibi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: "AGRO-DON" MChJ korxonasi uchun veb-sayt ishlab chiqish umumiy tartiblarini o'rgatishdan iboratdir. Web-sahifa tushunchasi va shakli. Internet manzili (URL) bilan bir xil ma'noda belgilanuvchi mantiqiy birlik. U Web-saytning tarkibiy qismidir. Web sahifa biror voqelik, xodisa yoki ob'yekt to'g'risida ma'lumotlarni o'zida jamlagan ma'lumotlar Faylidir. Web serverlar bazasi Web saytlardan iborat bo'lsa, Web saytlar esa o'z navbatida sahifalardan iborat bo'ladi. Fizik nuqtai nazardan u HTML turidagi Faylidir. Web sahifalar matn, tasvirlar, animasiya va dastur kodlari va boshqa elementlardan iborat bo'lishi mumkin. Sahifa statik va dinamik shakllantirilgan bo'lishi mumkin. Freymlardan (qismlar) iborat sahifalarda har bir freymga alohida sahifa mos keladi.

Web-sayt tushunchasi va shakli. Inglizcha "site" (tarjimasi joy, joylashish) so'zining o'zbekcha talaffuzi. Umumjaxon o'rgimchak to'ri ma'lum axborotni topish mumkin bo'lgan va noyob URL manzillar bilan belgilangan virtual joy. Mazkur manzil Web-saytning bosh sahifasi manzilini ko'rsatadi. O'z navbatida, bosh sahifada Web-saytning boshqa sahifalari yoki boshqa saytlarga murojaatlari mavjud bo'ladi. Web-sayt sahifalari HTML, ASP, PHP, JSP, texnologiyalari yordamida yaratilib, matn, grafik, dastur kodi va boshqa ma'lumotlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Web-saytni ochish uchun brouzer dasturidan foydalanib

uning manzil maydoniga kerakli Web saytning manzili kiritiladi. Web-sayt shaxsiy, tijorat, axborot va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Web portal tushunchasi. Web portal (inglizcha “portal” – darvoza so‘zidan olingan) - bu Internet foydalanuvchisiga turli interaktiv xizmatlarni (pochta, izlash, uangiliklar, forumlar va x.k) ko‘rsatuvchi yirik Web-sayt. Portallar gorizonta (ko‘p mavzularni qamrovchi) va vertikal (ma’lum mavzuga bag‘ishlangan, masalan avtomobil portali, uangiliklar portali), xalqaro va mintaqaviy (masalan uznet yoki runetga tegishli bo‘lgan), shuningdek ommaviy va korporativ bo‘lishi mumkin.

Web saytlarning toifalari va vazifalari. Web saytlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, ular biror faoliyat, voqea va xodisa yoki biror shaxsning Internetdagi imidjini yaratadi. Internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan saytlarni bir necha xil toifalarga ajratish mumkin:

- Ta’lim saytlari. Bu turdagi saytlarga ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va masofaviy ta’lim saytlari kiradi, masalan: edu.uz, eduportal.uz
- Reklama saytlari. Bu turdagi saytlarga asosan reklama agentliklari va reklamalarni joriy qilish saytlari kiradi.
- Tijorat saytlari. Bu turdagi saytlarga internet do‘konlar, internet to‘lov tizimlari va internet konvertasiya tizimlari saytlari kiradi, masalan: websum.uz, webmoney.ru, egold.com
- Ko‘ngilochar saytlar. Bu turdagi saytlarga kompyuter o‘yinlariga, fotogalereyalarga, sayohat va turizmga, musiqa va kinonamoyishlarga bag‘ishlangan saytlarni kiritish mumkin, masalan: mp3.uz, melody.uz, cinema.uz
- Ijtimoiy tarmoqlar saytlari. Bu turdagi saytlarga tanishish, do‘stlarni qidirish, anketalarni joylashtirish va o‘zaro muloqot o‘rnatishga bag‘ishlangan saytlarni kiritish mumkin, masalan: sinfdosh.uz, id.uz, odnoklassniki.ru

- Korxonalar va tashkilotlar saytlari. Bu turdagi saytlarga davlat korxonalarini, xo'jalik va boshqaruv organlari saytlari kiritiladi.

### Internet resurslari va ulardan foydalanish usullari

Internet resurslarini har xil ko'rinishdagi axborotlar tashkil etadi. Internet resurslaridan foydalanish internetning har xil xizmatlari yordamida amalga oshiriladi. Mavjud xizmatlarni bilish, konkret xizmatlarga murojaat qila bilish va qo'yilgan masalani yechish usullarini to'g'ri tanlash tarmoqda ishlash samarasini belgilaydi.

Internetning xizmatlarini quyidagi xizmatlarga ajratish mumkin.

- Interaktiv xizmatlar;
- To'g'ri murojaat qilish xizmatlari;
- Keyinchalik o'qishga mo'ljallangan xizmatlar;

Keyinchalik o'qishga mo'ljallangan xizmatlar ko'p tarqalgan bo'lib, ular ancha universal va kompyuter resurslariga hamda aloqa tizimlariga bo'lgan talablari kamroq hisoblanadi. Bu sinfning asosiy belgisi – axborot olishga berilgan talab bilan uni olish vaqti orasidagi tafovut katta bo'lishi mumkin.

Internetga resurslarni joylashtirish va ko'chirib olish. Axborotni serverga joylashtirish bir necha usullarda amalga oshiriladi. Masalan Plesk tizimi, FTP klient dasturlari yoki Web interfeys orqali resurslarni internetga joylashtirish mumkin. Bunda barcha yuklanayotgan ma'lumotlar server kompyuter xotirasidagi ajratilgan joyga joylashtiriladi. Biror ma'lumotni internetdagi biror kompyuterga joylashtirish uchun foydalanuvchi albatta shu tizimda qayd qilingan bo'lishi shart, aks holda yuklashga ruxsat berilmaydi. Ma'lumotlarni yuklab olish Web interfeys orqali yoki maxsus dasturlar orqali amalga oshiriladi. Bunda ko'rilgan Web saytdagi ma'lumotlarni Internet brouzerning saqlash amali yordamida yuklab olish mumkin.

Agar Fayl ko‘rinishidagi ma’lumotlarni yuklab olish kerak bo‘lsa, u holda Fayllarni yuklab olishga mo‘ljallangan maxsus dasturlardan foydalaniladi.

Internetda manzil tushunchasi va Internet resurslari manzili. Sahifa, Fayl yoki boshqa resursning Internetda joylashishini aniqlovchi noyob manzil – URL deb ataladi. Internetdagi manzil odatda quyidagi elementlardan tarkib topadi: resursdan foydalanish protokoli (masalan, http://, ftp://) va domen nomi (masalan, domain.uz). Internetdagi manzil, shuningdek, URL-manzil deb ham ataladi. Kompyuter domen manzilining namunaviy ko‘rinishi quyidagicha: http://www.tuit.uz, http://www.aci.uz. Odatda, hujjatlarda manzilni anglatuvchi ma’lumotlarning tagiga chiziladi. Namunadan ko‘rinib turibdiki, kompyuter manzili bir necha qismlardan iborat. O‘ng tomondan manzilning birinchi qismi (namunada uz) domenning birinchi sathi deb qabul qilinadi, keyingisi (namunada tuit) – domenning ikkinchi sathi va hokazo. Internetda manzillar ko‘p qavatli domen tizimida qurilgan. Birinchi sath domenlar umumjahon mavzular yoki geografik joylar bo‘yicha nomlanadi. Saytlar nomlari quyidagicha umumiy ko‘rinishda ifodalanadi:

O‘zbekiston Respublikasi hukumat portalini. O‘zR Vazirlar Mahkamasining “Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007 yil 17 dekabrda 259-son qaroriga asosan Hukumat portalini Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi. Bu bilan Hukumat portalida chop etilgan axborot, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan axborot bilan teng kuchga ega ekanligi belgilab berilgan.

Asosiy maqsadlari:

- respublika aholisi hamda xalqaro jamoatchilikning O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati to‘g‘risida, respublikaning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini ta’minlash;

- tashkilotlarning yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;
- axborotlarni ayirboshlash va tarqatish tezligi darajasi, tashkilotlarning xabardorligi darajasi o‘sishi hisobiga tashkilotlar faoliyatining sifati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;
- axborotlarni idoralararo elektron ayirboshlashni birxillashtirish.

O‘tgan vaqt mobaynida Portal uangi ma’lumotlar bilan to‘ldirilib kengaytirib borildi. Portalning funksional imkoniyatlarni mukammallashtirish, foydalanuvchilar qulayligi uchun do‘stona interfeys yaratish hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati to‘g‘risida dolzarb va tezkor ma’lumotlarni joylashtirish bo‘yicha ishlar olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2009 yil 20 yanvardagi “Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ – 1041 – sonli qaroriga asosan “Qo‘shimcha modullar (G to V va G to S) kiritilgan uangi platformadagi uangi Hukumat portalini ishga tushirish loyihasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalining uangi versiyasi ishlab chiqildi va 2009 yil 1 oktyabrdagi Internet tarmog‘ida asosiy domen [www.gov.uz](http://www.gov.uz) manzili bo‘yicha joylashtirildi.

### **Xulosa.**

Internetning ichki tahdidlari tarmoq axborot makonining ahvoli va rivojlanishi uchun salbiy oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlar. Bular: tarmoqning ortiqcha yuklanganligi tufayli axborot kollapsi (qulashi); xakerlarning ma’lumotlarni yo‘q qilishi yoki o‘zgartirishi, bog‘lamalar va trafikni “chetlab o‘tish” yo‘nalishlarini blokirovkalash maqsadida uyushtirgan hujumlari; kommunikasiya kanallarining tasodifiy yoki uyushtirilgan avariyalari; axborot-izlash tizimlarining mukammal emasligi; protokollarning “ma’naviy” eskirib qolishi va boshqalar. Internetning tashqi tahdidlari foydalanuvchilar uchun salbiy oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan tahdidlar. Tashqi tahdidlar texnologik va

ijtimoiy bo'lishi mumkin: Texnologik: tezligi sekin kanallar; tarmoqqa ulanishning unumsiz uslublari; olib keltirilgan viruslar; axborot "toshqini" va h.k.Ijtimoiy: foydalanuvchilarning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga bo'lgan ta'sir; insonning shaxsiy ongiga bo'lgan ta'sir; axborot terrori, jinoyati va boshqalar.Global tarmoqda ishlash va ma'lumotlar ustida turli amallar bajarish uchun maxsus dasturiy ta'minot zarur. Bunday dasturiy ta'minotlar brauzerlar deyiladi.Bugungi kunda ko'plab Internet brauzerlari mavjuddir. Ularning ichida keng tarqalganlari Internet Explorer, Opera, GoogleChrome, va Mozilla Firefox brauzerlaridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.Abduraxmonov "Development of a structure for implementation of parallel algorithmes based on cubic splines in a multiple nuclear processor" International Journal of Engineering and Information Systems //Vol. 5,Issue 5.,PaGES: 63-66,2021 y.
2. O.Abduraxmonov "Ko'p yadroli protsessorda kubik bazisli splaynlar asosida parallel algoritmlarni amalga oshirish tuzilmasini ishlab chiqish" Academic Research In Edicational Sciences Scientific Journal // Vol.2,Issue3.,PaGES: 628-633,2021 y.
3. O.Abduraxmonov "Some methods of signals digital operation" International journal for advanced research in science & technology // Vol.10,Issue 06.,PaGES: 1-4, 2020 y.
4. Abduraxmonov Odiljon Qobulovich: Pandemiya sharoitida "Axborot-kommunikatsion texnologiyalari"dan foydalanib,elektron ta'lim shakliga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari. "International scientific-online conference on innovation in the modern education system.Washington University in St.Louis
5. O.Q.Abdurakhmonov:Application of blits-question method in the process of laboratory training on the subject "Information-communication technologies" Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. **Volume 5| February 2022.** **ISSN: 2795-739X**